



TILSHUNOSLIKDA QARAMA-QARSHILIK MUNOSABATINING O'RGANILISHI VA LISONIY ZIDDIYAT

E.O'Rinboyeva

FarDU katta o'qituvchisi (PhD),

M.Gaziyeva

FarDU dotsenti (DSc)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15756143>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-Iyun 2025 yil

Ma'qullandi: 24-Iyun 2025 yil

Nashr qilindi: 27-Iyun 2025 yil

KEYWORDS

qarama-qarshiliklar,
antonimiya, lingvistik ziddiyat,
lingvistik oppozitsiya,
struktural tilshunoslik,
paradigmatik munosabat,
ziddiyatlar qonuni, Farobiy,
Aristotel, Alisher Navoiy,
semantik ziddiyat.

ABSTRACT

Mazkur maqolada qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunining lingvistik mohiyati, uning inson tafakkurida, til va nutq birliklari orasidagi ziddiyatlar orqali namoyon bo'lishi tahlil qilinadi. Falsafiy va lingvistik manbalarga tayangan holda antonimiyalik hodisasining tarixiy ildizlari, paradigmatik va sintagmatik bog'lanishlardagi ifodalanishi, hamda struktural tilshunoslikda tutgan o'rni yoritilgan. Shuningdek, turkiy tillarda antonim juftliklarning shakllanishi, ularning semantik xususiyatlari hamda funksional yuklamalari zamonaviy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi.

Dunyo mavjudotining harakati va taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy qonuniyatlardan biri — bu qarama-qarshiliklar birligi va kurashidir. Mazkur qonun falsafada ham, tabiatshunoslikda ham, tilshunoslikda ham muhim tamoyil sifatida e'tirof etiladi. Xususan, til tizimi o'zaro qarama-qarshi semantik birliklar asosida tashkil topadi va rivojlanadi. Bunday qarama-qarshiliklar nutq va tilning diyalektikasida, lingvistik birliklar o'rtasidagi antitezalar orqali ifodalanadi. Shu nuqtayi nazardan, qarama-qarshiliklar kategoriyasini lingvistik doirada tadqiq etish, ayniqsa antonimiya fenomeni orqali uning til tizimidagi aksini ochib berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar sharhi

Qarama-qarshiliklar kategoriyasi qadimgi yunon falsafasidan boshlab Aristotel, Sokrat, Platon, Demokrit kabi mutafakkirlar tomonidan turli nuqtai nazardan yoritilgan. Ayniqsa, Aristotelning ziddiyatlar haqidagi qarashlari keyinchalik antonimiya hodisasini tushunishda asos bo'lib xizmat qilgan. T.F.Chursunova antonimiya tadqiqotlarini aynan Aristotel bilan bog'laydi. Sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Forobiy o'zining "Falsafatu Aristutalis" asarida ziddiyat asosidagi tafakkur shakllarini, idrok darajalari va mohiyat-hodisa diyalektikasini chuqur tahlil qiladi.

Turkologiyada esa bu masalaga Mahmud Koshg'ariy asos solgan bo'lib, u "Devonu lug'otit turk" asarida antonimik birliklarni misollar asosida aniqlagan. Alisher Navoiy til birliklarining imkon va reallik asosidagi diyalektikasini falsafiy qiyosda talqin etgan. O'zbek tilshunosligida esa S.Mutalibov, S. Usmonov, R. Shukurov, I. Abdurahmonovlar tomonidan

antonimiya masalasi monografik tahlil qilingan. Hozirgi zamon tilshunosligida L.A. Vvedenskaya, V.N. Komissarov singari olimlar antonimlarning paradigmatic va sintagmatik bog'lanishlariga alohida e'tibor qaratgan.

Metod va metodologiya

Ushbu tadqiqotda umumiy falsafiy yondashuv bilan bir qatorda, struktur-mazmuniy tahlil, tarixiy-taqqoslov metodlari, semantik valensiya va paradigmatic qarama-qarshiliklarni aniqlash usullaridan foydalanildi. Tadqiqotda lingvistik birliklar orasidagi oppozitsiyalarni ajratish va ularning o'zaro muloqotidagi semantik tafovutlar ko'rsatilgan. Analiz qilingan manbalar asosida antonimiyalarning paradigmaticdagi o'rni va til strukturasi uchun axborot qiymati aniqlab berildi.

Asosiy qism

Qarama-qarshiliklar va ular o'rtasidagi kurash harakatga keltiradi. Zero, dunyoni harakatga keltiruvchi obyektiv qonun qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunidir.

Alloh taoloning qonunlaridan biri bo'lgan "parite" — zid juftlar qonuni dunyoni, butun olamlarni harakatga keltiruvchi kuchdir [1, 19]. Bunday zid juftlarga musbat va manfiy, shimol va janub, g'arb va sharq, zulmat va ziyo, yaxshilik va yomonlik (ezgulik va yovuzlik), issiq va sovuq, tortish va itarish, energiyaning quyilishi va so'rilishi, progress va regress, hayot va mamot, erkak va urg'ochi, juft va toq, nafs va qanoat, o't va suv, halol va harom, yumshoqlik va qattqlik, hayot va oxirat hamda boshqalarni misol sifatida keltirish mumkin. Zid juftlar matematik amallarda ham mavjud: qo'shuv va ayiruv, ko'paytiruv va bo'luv. Hatto sonlar ham qarama-qarshi – juftlik (2, 4, 6, 8...) va toqlik (1, 3, 5, 7, 9...)dan iborat. Dunyo va hayotning mana shu qonun asosida yaratilganligi "Yosin" surasining 36-oyatida aytib o'tilgan: "Yer undiradigan narsalardan, (odamlarning) o'zlaridan va yana ular bilmaydigan narsalardan iborat barcha juftlarni yaratgan (Alloh) ga tasbeh aytilur". Bu oyati karimada juftlar tushunchasiga insonning o'zi (erkak va ayol) va inson bilmaydigan boshqa zid juftlar kirishi nazarda tutilgan [1, 19]. "Parite" haqiqati Yerdagi hayotga xos bo'lishi barobarida biz bilgan-bilmagan butun koinot miqyosida ham hukm suradi. Mabodo Allohning bu qonuni bo'lmaganida edi, olamdagi jamiki moddalar, narsalar bir-biriga yopishib, koinot toq bir jism holiga kelardi. Yoki, aksincha, tarqalib, sochilib ketar edi. Ushbu Azaliy Qonun tilshunoslik uchun ham muvofiq hisoblanib, til va nutq dialektikasida va lingvistik birliklararo qarama-qarshilik munosabatida namoyon bo'ladi.

Qarama-qarshilik kategoriyasining o'rganilishi antik davrlarda boshlangan. Sokrat, Platon, Aristotel, Protagor, Demokrit kabi faylasuflarning ilmiy qarashlarida bu kategoriya turlicha talqin etib kelinganligini ko'rish mumkin [2]. Aristotelning qarama-qarshilik haqidagi ilmiy qarashlari muhim bo'lib, bu haqda T.F.Chursunova: "Antonimiyaning o'rganilishi qadimgi yunon faylasufi Aristoteldan boshlangan", deb fikr bildiradi [3, 10].

Aristotelning ilmiy-nazariy qarashlari keyinchalik fanda *kontrarlik* va *komplementarlik* hodisalariga asos bo'lgan.

Kontrar qarama-qarshilik – darajalanuvchi leksema qatoridagi tafovutning farqlarga, farqning ziddiyat, ya'ni qarama-qarshilikka o'sib borishi natijasida birinchi a'zo bilan oxirgi a'zoning antonimlashuvi. Masalan, [kichik] – [o'rta]-[katta], [yosh]-[o'smir] – [o'rta yosh]-[qari] kabi. Bunda [kichik] va [katta], [yosh] va [qari] leksemalari daraja qatorining ikki qarama-qarshi qatori a'zolari o'rtasida ikki antonim a'zo belgilarini o'zida mujassamlashtirgan bog'lovchi bo'g'in. Yuqoridagi [o'rta] leksemasida [kichik] va [katta] leksemalarining qarama-

qarshiligi so'nadi. Demak, leksemalarning kontrar qarama-qarshiligini ularning darajalanish (graduonimik) qatoridan izlash lozim.

Komplementar antonimiyada qarama-qarshilik uchinchi, oraliq bo'g'insiz bo'ladi: [rost]-[yolg'on], [arzon]-[qimmat], [oson]-[qiyin]. Bu leksemalar orasida oraliq uchinchi leksema yo'q [4, 106].

Qarama-qarshilik munosabati O'rta Osiyolik Qomusiy olimlar va tilshunoslarning ham diqqat markazida bo'lgan. Masalan, qomusiy olimlardan biri Abu Nasr Forobiy mazkur hodisa haqida qimmatli fikrlar bildirgan. Xususan, uning "Falsafatu Aristutalis" asarida zamonaviy tilshunoslikning falsafiy masalalari orasida markaziy o'rinni egallagan bilishning ikki bosqichi (hissiy va idrokiy), umumiylik-xususiylilik, mohiyat-hodisa dialektikasi haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan [5, 7].

Hozirgi kunda struktur tilshunoslikning, glossematik yo'nalishida keng tarqalgan o'zgarimas, barqaror (konstanta) birliklarning o'zgaruvchan (aksident) birliklarga zidlanishining ildizlari ham Forobiy asarlarida uchraydi. Avvalo, u har qanday rivojlanishning, o'zgarishning asosida ziddiyatlar yotishini e'tirof etadi. Forobiy "Falsafatu Aristutolis" asarida shunday yozadi: "Beadad ziddiyatlar bir-birlarini almashtirib turadilar. Ushbu tanovoblarda (almashinib turishlarda) bitta o'zgarimaydigan doimiy narsa bor. U ushbu tanovoblarni saqlab turadi va ularga singib ketadi. Narsalar bir-biriga ergashib va o'zgarib turganlari holda, doimiy bo'lib keladigan narsa "javhar" (substansiya) deb ataladi, almashinib va o'zgarib turuvchi narsalar "oraz" (aksidensiya) deyiladi [5, 9].

Keyingi davrlarda Kufa maktabining so'nggi vakillaridan biri Muhammad al-Anbariy qarama-qarshi ma'noli so'zlar haqida yirik kitob yaratadi [5, 32].

Mahmud Koshg'ariy o'z "Devon"ida so'zning muayyan ma'no anglatishdek muhim xususiyatidan kelib chiqib, so'z ma'nosi bilan bevosita bog'liq bo'lgan omonimiya, sinonimiya, antonimiya hodisalari haqida, so'z ma'nosining ko'chishi bilan bog'liq bo'lgan metofora, metonimiya, sinekdoxa, funksiyadoshlik kabi ma'no ko'chish usullari hamda so'z ma'nosining kengayishi va torayishi haqida fikr yuritadi, turkiy tillardan qator misollar keltiradi, fikrini isbotlaydi [6, 53]. Masalan, "Devon"da antonimik munosabatdagi so'zlar sifatida quyidagilar keltiriladi: *chivgin* (to'q tutuvchi, semirtiruvchi, kuchli - ovqat) - *kevgin* (to'q tutmaydigan, kuchsiz - ovqat, osh) [7, 415], *qaqig'* (g'azab, achchiqlanish, 1,252) - *qanig'* (rohatlanish, shodlanish, qoniqish, 1,253); *boshug'u* (bo'shatiladigan vaqt, bo'shatish, yechish vaqti: *at boshug'u boldi* - otni arqondan bo'shatish vaqti bo'ldi, 1,298) - *tushag'u* (bog'lanadigan, tushovlanadigan vaqt: *at tushag'u boldi* - otning oyog'ini arqonga bog'laydigan, tushovlaydigan vaqt bo'ldi, 1,298) kabi [8, 217].

Alisher Navoiy imkoniyat tarzidagi so'z (til birligi) sohibi ixtisos (so'zlovchi) tomonidan turli xil jilvalantirilishi (nutq birligi sifatida reallashtirilishi) mumkinligini bayon qiladi. "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ta'kidlanishicha, so'z go'yo durdur. Durning joylashish o'rni dengiz tubi bo'lsa, so'zning joylashish o'rni ko'ngildir (xotiradir) [5, 80].

Anglashiladiki, umumiylik va xususiylilik, imkoniyat va voqe'lik dialektikasi Gegeldan ancha oldin Alisher Navoiy asarlarida o'z aksini topgan. Ana shu dialektikaning tilda namoyon bo'lishi til va nutq antinomiya orqali yuzaga chiqadi.

Qarama-qarshilik kategoriyasi tilshunoslikda antonimiya termini ostida izohlanadi. Mazkur hodisasining lingvistik tabiati paradigmatic va sintagmatik munosabatlarda belgilanadi.

Paradigmatik bog'lanishda antonimlarning eng muhim belgisi ularning semantik jihatdan qarama-qarshilik munosabatini ifodalashidir.

Antonimlarning sintagmatik xususiyatlari quyidagicha ifodalanadi:

- 1) antonimlar qurshovi;
- 2) antonimlar qo'llanadigan konstruksiyalarning sintaktik modeli [9, 10].

Ko'plab tilshunoslar tomonidan antonim juftliklarning bir xil leksik qurshovga egaligi ta'kidlanib, ilmiy manbalarda ushbu xususiyat antonimlikni belgilovchi asosiy mezon sifatida ko'rsatiladi. Masalan, V.N.Komissarov: "Antonim so'zlar bir xil leksik qurshovga ega, ya'ni bir xil so'zlar guruhi bilan birlashib keladi", deb ta'kidlaydi [10, 55-56].

Rus tilshunosligida birinchi marta 1971-yilda taniqli tilshunos olim L.A.Vvedenskaya tomonidan "Rus tili antonimlarining lug'ati" yaratilgan [11]. 1972-yilda esa yana bir antonimik lug'at nashr etilgan [12].

Turkologiyada antonimlar haqida bir qancha ilmiy maqolalar e'lon qilingan, darsliklarda dastlabki umumiy ma'lumotlar berilganligiga qaramasdan, mazkur mavzu doirasida monografik plandagi asarlar 1970-yillarda maydonga kela boshladi. Xususan, antonimlar qozoq tilida J.Musin [13], ozarbayjon tilida K.A.Galibov [14] tomonidan o'rganilgan.

O'zbek tilshunosligida antonimiya hodisasi haqidagi ilk ilmiy-nazariy qarashlar S.Mutallibov va S.Usmonovlarning maqolalarida keltirilgan bo'lsa, keyinchalik ushbu masala R.Shukurov, B.Isabekov hamda I.Abdurahmonovlar tomonidan monografik tarzda tadqiq qilingan [15]. Shuningdek, M.Mirtojiyev, D.Abdullayeva, Y.Odilov, F.Jumayeva, Sh.Xojanov, M.Hakimova, B.Boltayeva [16] singari olimlar ushbu mavzuda tadqiqot olib borganlar.

Dunyo tilshunosligida XX asrning 60-yillaridan tilni sistema sifatida o'rganishga alohida e'tibor berildi va bu jarayon nemis olimi Vilgelm Gumboldt va shveysar olimi Ferdinand de Sossyur nomi bilan bog'landi.

Sistem tilshunoslikda asosiy masalalaridan biri har qanday lisoniy birlikning ichki mundarijasini belgilash va mazkur mundarijani tashkil etgan belgilarning vazifasini aniqlashdan iborat.

Lisoniy birlik mundarijasi o'z tarkibidagi belgilarning bir lisoniy birligini boshqa shunga o'xshash lisoniy birlikka solishtirish, zidlash orqali aniqlanadi.

Ziddiyat (ar.*qarama-qarshilik*: var.*oppozitsiya* . lot.*oppositio-qarama-qarshi qo'yish*) – lisoniy birliklarning ifodalanishidagi farqlarga muvofiq ifodalovchilarining va, aksincha, ifodalovchilardagi farqlarga muvofiq ifodalanmishlarining muhim lisoniy farqlanishi. Masalan, [b] va [t] fonemalari orasida ziddiyat mavjud bo'lib, shunga muvofiq, (*bosh*) va (*tosh*) birliklari orasida shakliy-mazmuniy qarama-qarshilik munosabati amal qiladi [4, 30].

Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni tabiat, jamiyat va tafakkur, ya'ni borliqdagi mavjudlik va taraqqiyotning bosh omili bo'lganligi kabi lisoniy paradigmadagi birliklarni bir-biriga bog'lab turuvchi, paradigmaning yashovchanligini ta'minlovchi asosiy omil lisoniy ziddiyatdir. Demak, falsafadagi qarama-qarshilik birligi va kurashi qonunining tilda voqelanishi lisoniy ziddiyat deyiladi.

Demak, lingvistik qonunlar falsafiy qonun tushunchasining narsa-hodisalar o'rtasidagi umumiy munosabat, borliqdagi zaruriy munosabatlar, mazmun va mohiyat, kategoriyalarning qonunlarga xizmat qilishi, qonunlarning umumiy va xususiy xarakterda bo'lishi, dinamik, statik, funksional va taraqqiyot qonunlarining mavjudligi asosida paydo bo'ladi.

Til strukturasi bo'lgan lisoniy oppozitsiya falsafaning qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni mohiyatiga ko'ra aniqlanica, miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga aylanishi qonuniga asosan til birliklarining hosil bo'lish yo'llari o'rganiladi. Inkorni inkor qonuni asosida til birliklarining shakllanish tizimi diaxron aspektda tadqiq qilinadi. Ushbu qonun mohiyati til birliklari etimologiyasida namoyon bo'ladi.

Ziddiyat farqlilikning kuchli darajasi bo'lib, antonimiya turli darajadagi farqliliklardan iborat. Farqlilik esa ikki til birligining qarama-qarshi qo'yilishi va qiyoslanishi asosida yuzaga keladi.

Xulosa

Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni faqat tabiatda emas, balki til tizimida ham asosiy dinamik omil sifatida namoyon bo'ladi. Til strukturasi ziddiyatli birliklar orqali tashkil topib, lingvistik oppozitsiyalar esa uning ichki mexanizmini tashkil qiladi. Bu jarayon eng avvalo antonimik juftliklar, ularning paradigmatic munosabatlari va sintagmatik muloqotida yaqqol ifodalanadi. Shunday ekan, tilshunoslikda qarama-qarshiliklarni aniqlash va ularni tizimli tahlil qilish nafaqat semantik, balki falsafiy qonuniyatlarni ham chuqur anglash imkonini beradi. O'zbek tili misolida olib borilgan tahlillar ushbu qonuniyatning hayotiy va amaliy ahamiyatga ega ekanligini isbotlaydi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Абдурахмонов А. Саодатга элтувчи билим. – Тошкент: Мовароуннахр, 2005. – Б.19.
2. Краткий очерк истории философии.– Москва; Мысль, 1975.
3. Чурсунова Т.Ф. Антонимия в именном словообразовании немецкого языка. Дисс. канд.ф.н. – Самара, 2004. – С.10.
4. Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. – B.106.
5. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б.7.
6. Расулов Р. Умумий тилшунослик. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Fan va texnologiya 2007. – Б.53.
7. Девону луғатит турк. 1-жилд. – Тошкент, 1960-1963. – Б.415.
8. Розикова Г. Маҳмуд Кошғарий “Девону луғотит турк” асариди қўлланган от лексемаларнинг семантик, функционал ва услубий хусусиятлари”.Ф. ф. док.дисс. – Фарғона, 2021. – Б.217.
9. Абдуллаева Д. Ўзбек тилида антисемия. Ф.ф.н. дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – Б.10.
10. Комиссаров В.Н. Проблема определения антонима (О соотношении логического логического и языкового в семасиологии) // Вопросы языкознания. 1957. – № 2. – С.55-56.
11. Введенская Л.А. Словарь антонимов русского языка. – Ростовского ун-та, 1971.
12. Колесников Н.П. Словарь антонимов русского языка. – Тбилисского ун-та, 1972.
13. Мусин Ж. Антонимы в казахском языке. – Алма-Ата, 1970.
14. Талыбов К.А. Антонимы в современном азербайджанском языке. – Баку, 1971.
15. Шукуров Р. Лексико-семантическая природа антонимов узбекского языка. Дисс. канд. филол. наук.–Ташкент, 1973; Исабеков Б. Лексическая антонимия в современном узбекском языке. Дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1973; Абдурахмонов И. Полисемия и антонимия прилагательных протяженности в современном узбекском литературном языке. Дисс. канд. филол. наук. – Ташкент, 1973.

16. Миртожиев М.М. Ўзбек тили семасиологияси. Mumtoz so'z, 2010; Абдуллаева Д. Ўзбек тилида антисемия: филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2010; Одилов Ё.Р. Ўзбек тилида энантиосемия. Ф.ф.док. дисс. – Тошкент, 2016; Жумаева Ф. Полисемем лексемалар доирасидаги синоним ва антоним семалар тадқиқи. Ф.ф.б.ф.д. дисс. – Тошкент, 2018; Хожанов Ш. Қорақалпоқ тилиндеги антонимлардин семантикаси, морфемалық қурилысы ҳәм стилистикалық хызметлери. Ф.ф.б.ф.д. дисс. – Тошкент, 2018; Хакимова М. Ўзбек тилида абстракт отлар семантикаси. Ф.ф.док.дисс. – Тошкент, 2019; Болтаева Б. Ўзбек тилида фразеологик бирликларнинг трансформацияси (семантик-прагматик таҳлил). Ф.ф.б.ф.д. дисс. – Тошкент, 2019.

